QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOVA MOHINUR BARATBOYEVNA

PEDAGOGIKAGA OID TERMINLAR RIVOJLANISHIDA SOTSIOLINGVISTIK VA PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)
Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI   DSc
03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOVA MOHINUR BARATBOYEVNA

PEDAGOGIKAGA OID TERMINLAR RIVOJLANISHIDA SOTSIOLINGVISTIK VA PRAGMALINGVISTIK YONDASHUV (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.DSc/Fil718 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.qardu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Paluanova Xalifa Dariboyevna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Tojiyeva Gulbahor Namozovna** filologiya fanlari doktori, professor **Otaboyev Nozimjon Bobojonovich** filologiya fanlari doktori, professor **Teshaboyeva Ziyoda Qodirovna** filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «_____» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi 17. Tel.: (0 375) 220-02-10; faks: (0375) 221-00-56; E-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, 3-qavat 310-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi 17. Tel.: (0 375) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «____» _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi.)

G.H.Ernazarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

N.K.Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

B.Z.G‘afurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

4

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tillararo muloqotning rivojlanishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlarni izchil lingvistik asoslash zaruratini kuchaytirmoqda. Pedagogika sohasida qo'llanilayotgan terminlarning umumiste'mol doirasiga kirib borishi ularni ilmiy mezonlar asosida tavsiflash, mazmuniy chegaralarini belgilash va qo'llanish me'yorlarini aniqlashtirishni taqozo etadi. Pedagogik terminlarni kontekstual hamda pragmatik jihatdan chuqur tahlil qilish, sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuvlarni uyg'unlashtirish, pedagogika termin tizimi birliklarining kommunikativ-lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlarini izchil yoritish dolzarb masala sanaladi. Binobarin, ushbu terminlar orqali turli tillarga xos ta'limiy yangilanishlar o'rtasidagi aloqalarni tadqiq etish va ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida pedagogik terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti sinonimiya, omonimiya, morfologik, struktur-semantik, lingvostilistik hamda leksikografik masalalarga doir ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirdi. Bugungi kunda mazkur sohaga oid birliklarning leksik-frazeologik, universal, differensial hamda tavsifiy-tasnifiy belgilari yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida milliy tabiati jihatidan farqlanuvchi pedagogik terminlar rivojini sotsiolingvistik va pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy omillaridan biri sanaladi. Pedagogik terminlarning tushunarli hamda milliy madaniyatga mos qo'llanishini tavsiflash, ularning kognitiv-kategorial tamoyillarini yoritish, inson tafakkuri va mantiqiy faoliyati verballashuviga tayanuvchi pragmatik belgilarning qiyosiy tahlili Sharq va G'arb madaniy-lisoniy voqeligini ilmiy asosda talqin etishga xizmat qiladi. Zero, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalardan foydalanishni tizimlashtirish hamda me'yorlashtirish sharoitida terminlarning ijtimoiy-kommunikativ qiymatini aniqlash va innovatsion taraqqiyot istiqbollarining ommalashuvi uchun zarur ilmiy asoslarni belgilash tadqiqotning nazariy-metodologik poydevorini belgilaydi.

Yangi O'zbekistonda ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish, pedagogikaga doir terminlarning yangi avlodini yaratish asosida malakali kadrlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbek tilidagi turli yo'nalishlarga doir terminlarni sharhlash hamda o'zbekcha atama va tushunchalarni yaratish, ularni amaliyotda qo'llash borasida izlanishlar olib borilayotgani terminologiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar bilan bog'lanadi. O'zbek tilshunoslik fanining barqaror rivojlanishi esa terminologiya sohasida ilmiy muammolarni nazariy jihatdan o'rganish masalalarini kun tartibiga qo'ymoqda. Shunga ko'ra pedagogika sohasiga doir terminlarning sotsiolingvistik va pragmalingvistik jihatlarini atroflicha ko'rib chiqish zarurligi, xususan, "…boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini

oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak[1]” degan fikr bilan ham tasdiqlanadi. Shu asoslar pedagogik terminlarning me’yoriy qo‘llanishini lisoniy jihatdan aniqlashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Pedagogikaga oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuvni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Indiana universiteti, Kaliforniya universiteti, Kolumbiya universiteti, (AQSh), Toronto universiteti (Kanada), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat Sharqshunoslik instituti, Oltoy davlat universiteti, Dog‘iston davlat pedagogika universiteti (Rossiya), T.Shevchenko nomli Kiyev milliy universiteti (Ukraina), Anqara universiteti (Turkiya), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

[1]Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022. https://president.uz/oz/lists/view/5774

[2]Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: https://www.dissercat.com/ , https://www.twirpx.com/files/science , www.amozon.com , www.britanica.com , www.cambridge.org , https://diss.natlib.uz , https://ziyonet.uz/search kabi manbalar asosida amalga oshirildi.

Dunyo tilshunosligida pedagogikaga oid terminlar tadqiqiga doir muhim xulosalar chiqarilgan: ta'lim sohasi terminlari tizimli va ierarxik birlik sifatida talqin qilinib, ularning leksik-semantik xususiyatlari rivojiga ekstralingvistik omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan (Tojikiston Milliy universiteti, Tojikiston); mazkur soha terminlari xronologik va tasnifiy asosda tahlil qilinib, ularning kelib chiqish manbalari, ichki resurslar orqali yasalish usullari, leksik-semantik hamda struktur-grammatik xususiyatlari aniqlangan (Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universiteti, Ozarbayjon); pedagogika terminologiyasi ko'pmadaniyatli ta'lim makoni sharoitida integrativ tizim sifatida yoritilib, uning integrativ mezonlari belgilangan, terminologiyani leksikografik manbalarda berish tamoyillari hamda uni qo'llab-quvvatlovchi ochiq xalqaro axborot-leksikografik resurs konsepsiyasi taklif etilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya) va boshqalar.

Bugungi kunga kelib, pedagogikaga oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv doirasida qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: yangidan-yangi ta'lim tushunchalari uchun terminlarning maqbul variantini tanlash, taklif etilgan terminlarning real nutqiy muomalada qo'llanishi va pragmatik qiymatini aniqlash, ularning sermahsul yasash modellarini belgilash, terminlarning tilga singish darajasi yoki iste'moldan chiqish omillarini izohlash, variantdorlik va sinonimiyani tartibga solish, terminlarni standartlash, shuningdek, tarjima jarayonida termin izchilligini ta'minlash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya va uning nazariy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, maxsus fanlarga doir atama hamda tushunchalarni tizimlashtirish, shuningdek ularning pragmatik jihatlarini tahlil qilish masalalari izchil o'rganilgan. Ayniqsa, pedagogika sohasiga doir terminlarning mazmuni, ularning sharhi, struktur-semantik tahlili, tarjima muammolari hamda leksikografik talqini Diane Larsen, Paul James, Rupert Wegerif[1] kabi mutaxassislar tadqiqotlarida yoritilgan. Rus tilshunosligida esa universal hamda maxsus terminologiya bo'yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan[2].

---

[1]Larsen-Freeman D. The acquisition of grammatical structures in pedagogical contexts: diss. … PhD in Linguistics. – Ann Arbor: University of Michigan, 1975. – 240 p; Gee J.P. Language, learning and social practice: diss. … PhD in Linguistics. – Stanford: Stanford University, 1975. – 258 p; Wegerif R. Language and dialogic pedagogy: diss. … PhD in Education. – Cambridge: University of Cambridge, 1998. – 276 p; Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam-Philadelphia: John Benjamins, 1990. – P.121; Wright S.E. Handbook of Terminology Management. – Amsterdam: John Benjamins, 1997. – P.236; Wright S. E., Budin G. Handbook of Terminology Management. – Amsterdam: John Benjamins, 2001. – 564 p; Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – P.181; Hanks P. Lexical Analysis: Norms and Exploitations. – Cambridge, MA: MIT Press, 2013. –P.267; Mikics D. A New Handbook of Literary Terms. – New Haven; London: Yale University Press, 1984. – P.233; Pandurangan M. Literary Forms & Terms. – Chennai: Nivethita, 2004. – P.104; Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description. – Amsterdam: John Benjamins, 2000. –P. 181; Felber H. Terminology Manual. – Paris, 1984. – P.114; Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. Teil 1–2. –Wien–New York, 1979. – Bd. II: S.113; Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – P.189. Rondeau G. Introduction à la terminologie. – Montréal, 1981. – P.91.

[2]Лату М.Н., Раздуев А.В. Терминоведение: частные вопросы развивающихся терминологий: учебное пособие к лекционному курсу «Общие и прикладные аспекты терминоведения». – Пятигорск, 2011 – 132 с; Шелов С.Д. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. Серия: Филологические исследования. – СПб:

7

O‘zbek tilshunosligida esa terminologiya sohasi va uning ilmiy-nazariy masalalari A.Qosimov, P.Nishonov, X.D.Paluanova, S.T.Musayeva, G‘.Abdurahmonov, O.S.Axmedov, G.M.Ismoilov, Z.Q.Teshaboyeva, H.Dadaboyev, I.T.Xaydarov, N.S.Atayeva[1] kabi olimlar tadqiqotlarida alohida e’tibor markazida bo‘lgani kuzatiladi. Bu borada I.R.Ermatov, D.X.Kadirbekova, M.U.Saidova, M.K.Omonova, Z.S.Alimova[2] kabi tadqiqotchilarning ilmiy

Филол. факультет СПБГУ, 2003. – 280 с; Циткина Ф.А. Терминология и перевод: (К основам сопоставительного тер-миноведения). – Львов: Вища школа, Изд-во при Львов. гос. ун-те, 1988. – 162 с; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов (Book Review). – Том 35, 1967. – С.170 - 510; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: URSS,2007 – С.20-84; Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – 104 с; Буянова Л.Й. Термин как еденитса логоса [Term as the unit of logos]. – Краснодар, 2002 – С.45; Избранные труды. История русского литературного языка. – М., 1988. – С.10-14; Володина М.Н.Теория терминологической номинации. – М.: Издательство Московского университета, 1997 – 180 с; Татаринов В.А. Теория терминоведения: в 3 т. Т.1.Теория термина: история и современное состояние. – М.: Московский лицей, 1996. – 311 с; Кияк Т.Р. Лингвистические аспекты терминоведения. – Киев: УМКВО, 1989 – 103 с.

[1] Косимов А. Ҳозирги ўзбек тилидаги фарматсевтика терминологияси: Филол. фан. номз. диссер. автореф. – Тошкент, 1982. – Б.88; Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – В.25. Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фан. док. (DSc) диссер. автореф. – Тошкент, 2016. – Б.88; Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.42; Абдураҳмонов Ғ. Терминология муаммолари //Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт переспективалари: Биринчи Республика терминология конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.12; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларидаги солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ҳамда таржима муаммолари: Филол. фан. док. (DSc) диссер. – Тошкент, 2016; Исмаилов Г.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида терминларнинг семантик шаклланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. авторефер. – Тошкент, 2011. – Б.27; Тешабоева З.Қ. «Бобурнома» нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2021. – 259 б; Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Ёшлар, 2019. – Б.76. Xaydarov I.T. Ingliz va o‘zbek tillarida sug‘urta leksikasining chog‘ishtirma tadqiqi: Filol. fan. fals. (PhD) dok. … diss. avtoref. – Termiz, 2023. – 20 b; Атаева Н.С. Инглиз ва ўзбек тилларида банк-молия терминларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. (PhD). док. … дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 26 б; Sayfutdinova M.A. Ingliz va o‘zbek tillari iqtisodiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. fals. (PhD) dok. … diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 20 b.;

[2] Ermatov I.R. Umum ta’lim maktablari darsliklari asosida o‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va rivojlanishi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2019. – В. 42; Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларидаги ахборот ва коммуникация технологиялари терминологияси ҳамда унинг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. (PhD). док ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.44; Saidova M. U. M.H. Abramsning "Adabiyotshunoslik terminlari glossariysi" lug’ati haqida mulohazalar // "Хорижий тилларни ўқитиш динамикаси ва уни ўқитиш самарадорлигини оширишнинг когнитив технологиялари". – Тошкент, 2020. – Б.252-256; Omonova M.K. Ingliz va o‘zbek tillarida meliorativ terminlarning leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 44 b; Alimova Z.S. Ingliz va o‘zbek tillarida harbiy terminlarning funksional-semantik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. (PhD) dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 44 b.

izlanishlarini alohida qayd etish lozim. Xususan, ingliz[1] va oʻzbek[2] tilshunosligida terminlarning sotsiolingvistik hamda pragmalingvistik jihatlarini oʻrganish, kommunikativ munosabat, nutq aktlarining realizatsiyasi (amalga oshishi), presuppozitsiya bilan bogʻliq omillar hamda diskurs tahliliga doir masalalarni tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar muhim ilmiy manba vazifasini oʻtaydi.

Tilshunoslikda terminologiya, pragmalingvistika hamda sotsiolingvistika sohalari doirasida ingliz va oʻzbek tillarining leksik-semantik tizimi, nutqiy-funksional xususiyatlari va ijtimoiy-kommunikativ imkoniyatlarini oʻrganishga qaratilgan koʻplab tadqiqotlar olib borilgan boʻlsa-da, pedagogika sohasiga oid terminlar pragmatikasi masalasi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha oʻrganilmagan. Mazkur yoʻnalishda maxsus monografik tadqiqotlarning mavjud emasligi pedagogik terminlarning nutqiy-funksional xususiyatlari hamda ingliz va oʻzbek tillarida ularning pragmatik rivojlanish qonuniyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Pedagogik terminlarning ta'limiy muloqot jarayonidagi kommunikativ vazifalari, adresant va adresat oʻrtasidagi munosabatda pragmatik mazmuni hamda sotsiolingvistik omillar ta'sirida taraqqiy etish xususiyatlarini tizimli ravishda tasniflashga doir masalalar esa maxsus oʻrganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ingliz tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va oʻzbek tillarida pedagogikaga oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv tamoyillarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagogikaga oid terminlarning rivojlanish jarayonlarini Yangi Oʻzbekistondagi islohotlar sharoiti va globallashuv davri kontekstida oʻrganish, ta'lim tizimidagi ijtimoiy oʻzgarishlarning terminlar iste'moli va yangilanishiga koʻrsatgan ta'sirini aniqlash;

---

[1]Labov W. The Social Stratification of English in New York City: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – New York: Columbia University, 1966. – 655 p; Trudgill P. Sociolinguistic variation in Norwich: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – Cambridge: University of Cambridge, 1971. – 312 p; Milroy L. Language and social networks: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – Belfast: Queen's University Belfast, 1976. – 298 p; Coupland N. Style, Identity and sociolinguistic variation: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – Lancaster: University of Lancaster, 1984. – 275 p; Leech G. Meaning and the English verb: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – London: University of London, 1967. – 301 p; Levinson S.C. Pragmatics and social meaning: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – Cambridge: University of Cambridge, 1979. – 340 p; Thomas J. Pragmatic failure in interlanguage: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – London: University of London, 1980. – 245 p; Culpeper J. Impoliteness in language Use: Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. – Lancaster: Lancaster University, 1996. – 289 p.

[2] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 300 b; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – В. 10-11; Тешабоева З.Қ. Маданиятлараро коммуникацияда экстралингвистик тафовутлар // "Филология масалалари" илмий-методик журнали. – 2019. – № 2. – Б.63–69; Юсупов О.Я. Инглиз ва ўзбек тилларидаги лексик дублетларнинг функционал-семантик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. док. … дисс. – Самарқанд, 2020. – 225 б; Ibrohimova I. B. Koʻp tilli muhitda lisoniy identiklikning sotsiolingvistik xususiyatlari (oʻzbek talabalari misolida): Filol. fan. boʻyicha fals. (PhD) dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 44 b.

ingliz va o'zbek tillarida "pedagogik til kontakti" tushunchasining ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etish hamda kasbiy-pedagogik muloqotda terminlarning funksional faollashuvi va kommunikativ samaradorlikni ta'minlashdagi rolini ochib berish;

zamonaviy ta'lim diskursida pedagogik terminlarning nutqiy vaziyatga moslashuvini tahlil qilish va ularning *o'qituvchi*, *metodist*, *olim*, *o'quvchi, talaba*, *tadqiqotchi* o'rtasidagi munosabatlarda qanday pragmatik vazifalarni bajarishini ilmiy jihatdan asoslash;

pedagogik terminologiyaning jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar, kasbiy guruhlar va institutsional muhitlarda turlicha tushunilishi va qo'llanilishiga oid sotsiolingvistik muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish;

pedagogika sohasiga oid yangi terminlarning shakllanish omillarini (ilmiy-pedagogik ehtiyojlar, davlat ta'lim standartlari, xalqaro hamkorlik dasturlari va raqamli ta'lim muhiti) nuqtayi nazaridan o'rganish hamda ularni zamonaviy ingliz-o'zbek pedagogik lug'atlarida aniq va samarali izohlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

tadqiqot natijalari asosida pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik va pragmalingvistik rivojlanish modelini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda semantik, kontekstual, pragmalingvistik, sotsiolingvistik, qiyosiy-tipologik, tarixiy-etimologik, lingvostatistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik jihatlari ijtimoiy-tarixiy hamda lisoniy-madaniy omillar ta'sirida shakllangani, ularning mazmuni tilni ishlatuvchi millat madaniyati va mafkurasi bilan belgilanishi zamonaviy global infratuzilma sharoitida madaniyatlararo va fanlararo kommunikatsiya jarayonlari kontekstida pedagogika terminologiyasini integrativ ilmiy fenomen sifatida tahlil qilish asosida yoritilib, jamiyatning eng faol qatlamlari bo'lgan *ayollar* va *yoshlar nutqida* mazkur terminlarning qo'llanish samaradorligi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillari pedagogika termin tizimida insonning kognitiv faoliyati natijalari lisoniy shaklga ko'chishi jarayonida shakllangan "o'zlik" va "o'zlashganlik" qatlamlari, xususan pragmatik o'zlashmalar hamda neologizmlar pragmalingvistik talqinda sinonimiya va polisemiya qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqligi, ularning semantik hajmi va kommunikativ vazifasi nutqiy vaziyat omillari ta'sirida faollashishi aniqlangan;

turli tizimli tillarda pedagogik terminlarning diskursiv muhitda voqelanishida ekstralingvistik omillarning ustuvorligi (*kommunikativ maqsad*, *pragmatik*

yo'naltirilganlik, *madaniy-ijtimoiy kontekst*, *ijtimoiy tabaqalanish*, *madaniy moslashuvchanlik*), struktur-semantik belgilar hamda sintaktik va formal-lingvistik ko'rsatkichlarning ikkilamchi funksional maqomi aniqlangan;

qiyoslanayotgan tillarda pedagogika terminologiyasining leksikografik portret yaratish tajribasida *PTL ekspress tushunchalar; PTL ma'lum darajada barqarorlikka ega; PTL komponentlari o'zining bevosita nominativ ma'nosini saqlab qolish* kabi funktsiyalarning birlamchi qiymat kasb etishi asoslangan;

har ikkala til kommunikativ jarayonida voqelanadigan *pedagogik til* kontakti tushunchasi shakl va mazmun chegaralarining funktsional dinamizmi ***kommunikativ effektivlik***, *terminologiyaning standartliligi, kontekstual moslashuv* tamoyillari negizida sodir bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning pragmalingvistik modellari "pedagogik til kontakti" tushunchasining asosiy negizini ochib berish natijasida "pedagogikaga oid terminlarda shaxs tamoyili" (Izoh: PTP- pedagogikaga oid terminlar pragmalingvistikasi; PPT-pragmalinguistics of pedagogical terms) tushuncha funksiyasining amaldagi ifodasi aniqlangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda pedagogik terminlarning sotsiolingvistik muammolari "ijtimoiy tabaqalanish" mezoni bo'yicha o'rganilgan, ushbu terminlarning ijtimoiy muhitdagi talqini va diskursiv xususiyatlari o'rganilgan. Shu bilan birga, pedagogik terminologiyaning pragmatikasi bo'yicha yangi tasniflar asosida "o'z" va "begona"lik, pragmatik o'zlashmalar va neologizmlar, shuningdek, milliy o'ziga xoslikni belgilash kabi yondashuvlar ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi "pedagogik nutq"ni pragmalingvistik jihatdan yangicha o'rganildi, ya'ni o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar nutqida qo'llanadigan pedagogik terminlarning o'ziga xosliklarini asoslangan va bu pedagogik nutqning tilshunoslik hamda kommunikativ funksiyalarini baholashga yordam berish natijasida pedagogik nutqning pragmalingvistik jihatini to'la qonli ochib berilishi ko'rsatib berilgan;

pedagogik terminlarning leksikografik portreti yaratish tajribasida soha terminlarning leksikografik ta'riflarini ishlab chiqish va amaliy yondashuvlar bilan integratsiya qilinishini ta'lim va muloqot jarayonlarida qo'llashda innovatsion metodologiyalar, raqamli texnologiyalar va interaktiv resurslardan foydalanish bo'yicha yangi metodlarni ishlab chiqish natijasida pedagogik terminologiyaning amaliy tahlili asosida yangi yechimlar va takliflar ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarining ichki va tashqi omillar asosida shakllanishi, takomillashuv jihatlari, tarjima usullari tadqiqi orqali chiqarilgan xulosalar nafaqat tilshunoslik uchun, pedagogika sohasi bo'yicha ham yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning semantik, morfologik va sintaktik, kontekstual, pragmalingvistik, sotsiolingvistik, qiyosiy-tipologik, tarixiy-etimologik, komponent, semantik maydon tahlili, lingvostatistik va tarjima usullari orqali

asoslanganligi, tadqiqotdagi ilmiy-nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan tanlab olinganligi, mazkur sohaga oid inglizcha terminlarning va o'zbek tillarida muayyan terminografik prinsiplar asosida tadqiq etilganligi, xulosa va tavsiyalarning terminologiya amaliyotiga va ta'lim jarayoniga joriy qilinganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tilshunosligida asosiy ilmiy xulosalari va nazariy umumlashmalaridan terminologiya nazariyasi, pedagogik terminologiyani takomillashtirish, pedagogika oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv, konversiya usullari kabi masalalarga, kompleks yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalardan oliy ta'lim tizimida terminologiya, terminografiya, leksikologiya, leksikografiya nazariyasi fanlaridan maxsus kurs o'tishda, shuningdek, ushbu fanlar bo'yicha darslik, qo'llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, tadqiqotning xulosa va materiallaridan ingliz va o'zbek tillarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda, kurs va magistrlik ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillari pedagogikaga oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv tadqiqi jarayonida olingan natija va xulosalar asosida:

ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik jihatlari ijtimoiy-tarixiy hamda lisoniy-madaniy omillar ta'sirida shakllangani, ularning mazmuni tilni ishlatuvchi millat madaniyati va mafkurasi bilan belgilanishi zamonaviy global infratuzilma sharoitida madaniyatlararo va fanlararo kommunikatsiya jarayonlari kontekstida pedagogika terminologiyasini integrativ ilmiy fenomen sifatida tahlil qilish asosida yoritilib, jamiyatning eng faol qatlamlari bo'lgan ayollar va yoshlar nutqida mazkur terminlarning qo'llanish samaradorligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023- yillarda bajarilgan AM-Ф3-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish mavzusi" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-avgustdagi №04/01-2188-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu tadqiqot va unda keltirilgan ilmiy-yangiliklar, tavsiyalar loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillari pedagogika termin tizimida insonning kognitiv faoliyati natijalari lisoniy shaklga ko'chishi jarayonida shakllangan "o'zlik" va "o'zlashganlik" qatlamlari, xususan pragmatik o'zlashmalar hamda neologizmlar pragmalingvistik talqinda sinonimiya va polisemiya qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqligi, ularning semantik hajmi va kommunikativ vazifasi nutqiy vaziyat omillari ta'sirida faollashuviga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Ф3-201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek,

rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-avgustdagi №04/01-2189-son ma'lumotnomasi). Natijada soha terminlarning leksikografik ta'riflarini ishlab chiqish va baholash asosida terminlarning amaliy qo'llanilishi, ularning lesikografik yondashuvlar bilan integratsiya qilinishining ko'rsatilganligi to'g'risidagi tavsiyalar asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan;

turli tizimli tillarda pedagogik terminlarning diskursiv muhitda voqelanishida ekstralingvistik omillarning ustuvorligi (kommunikativ maqsad, pragmatik yo'naltirilganlik, madaniy-ijtimoiy kontekst, ijtimoiy tabaqalanish, madaniy moslashuvchanlik), struktur-semantik belgilar hamda sintaktik va formal-lingvistik ko'rsatkichlarning ikkilamchi funksional maqomi ekanligiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024- yillarda AQSh elchixonasi hamda Amerika Kengashi hamkorligida moliyalashtirilgan "English Access Microscholarship Program" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 17-avgustdagi №1573/02-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillarida "pedagogik nutq" tushunchasi tasniflangan va uni pragmalingvistik xususiyatlarini o'rganish imkoniyatlari kengaygan;

qiyoslanayotgan tillarda pedagogika terminologiyasining leksikografik portret yaratish tajribasida *PTL ekspress tushunchalar; PTL ma'lum darajada barqarorlikka ega; PTL komponentlari o'zining bevosita nominativ ma'nosini saqlab qolish* kabi funktsiyalarning birlamchi qiymat kasb etishiga oid xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21-GR-3181 "Reinforcing English Language Competence at Karshi State University" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 4-iyuldagi №04/1954-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagogikaga oid terminlarni shaxslararo munosabatda o'rni va ahamiyatiga ta'sir qiluvchi omillar ochib berilganligi haqidagi tahliliy fikrlaridan va nazariy xulosalardan foydalanilgan;

har ikkala til kommunikativ jarayonida voqelanadigan *pedagogik til* kontakti tushunchasi shakl va mazmun chegaralarining funktsional dinamizmi **kommunikativ effektivlik**, *terminologiyaning standartliligi, kontekstual moslashuv* tamoyillari negizida sodir bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasi "Qashqadaryo" telekanalining "Fayzli kun" teledasturi hamda "Oltin voha" dasturidagi "Ochiq muloqot", "Qadriyat" radioeshittirishi ssenariysini tuzishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 10-iyuldagi №17-05/115-son ma'lumotnomasi). Natijasida radioeshittirish ssenariysi nutqiy muloqotda pedagogikaga oid terminlar bilan bog'liq xususiyatlariga oid ma'lumotlar bilan mukammallashtirilgan hamda ilmiy dalillar bilan yanada mukammalroq ta'minlash imkonini bergan.

pedagogik terminologiyaning sotsiolingvistik aspektlarini tahlil qilishda ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarning ijtimoiy kontekstda rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda ijtimoiy guruh va madaniyatlar ta'sirida o'zgarish

mexanizmlarini tahlil qilish, pragmalingvistik yondashuv orqali pedagogik terminlarning pragmatik xususiyatlarini tadqiqoti natijalaridan 2022-2023- yillarda bajarilgan 1-203-4 raqamli Oʻzbekton Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma'rifiy muassasalar nomoddiy madaniy merosni rivojlantirish shoʻbasi tomonidan oʻzbek xalqining boy milliy til an'analari, nomoddiy madaniy merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yish va aloqalarni mustahkamlash borasida tuzilgan "Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirish" nomli fundamental loyiha doirasida joriy qilingan. (22.01.2025-y № 03-12-06-898-son ma'lumotnomasi) Natijada pedagogik terminlarning kommunikativ vazifalari, ularning pedagogik va ijtimoiy muloqotdagi qoʻllanish imkoniyatlari hamda ingliz va oʻzbek tillarida maqsadli auditoriyaga koʻrsatadigan ta'siri aniqlandi, shuningdek, chogʻishtirilayotgan tillarda pedagogik terminlarning interfaol kommunikatsiyadagi oʻrni va kommunikativ maqsadlar bilan bogʻliqligi baholandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 31 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola jumladan, 12 ta respublika miqyosidagi va 7 ta xalqaro bazalar roʻyxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajmi 246 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi va dissertatsiyaning tadqiqot rejalari bilan muvofiqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Pedagogikaga oid terminlarning lisoniy tadqiqi: muammoga kompleks nazariy yondashuv**" deb nomlanadi. Bobning birinchi *"Pedagogikaga oid terminlar terminologiyaning umumiy masalalari nuqtayi nazaridan"* faslida hozirgi davr jahon terminologiya tizimining rivojlanishiga asos boʻlgan uchta maktab, ya'ni *Vena terminologiya maktabi*, *Sovet*

(sobiq Ittifoq) terminologiya maktabi hamda *Praga terminologiya maktabi*[1] haqida batafsil ma'lumot bayon qilingan.

Pedagogikaning konseptual va terminologik tizimini tadqiq etish murakkab muammo bo'lib, u ko'plab jihatlarni qamrab oladi. Jumladan, soha terminlari belgi birligi maqomida quyidagi jihatlarda ko'rib chiqilishi kerak:

1.2-rasm. Pedagogikaga oid terminlar o'rganilish jihatlari

Pedagogikaga oid terminlarning ushbu jihatlari tadqiqiga qo'yiladigan talablarni to'rt guruhga ajratish mumkin: a) *soha terminining shakliga qo'yiladigan talablar* (til me'yorlariga muvofiqligi, qisqalik, leksik hamda rasmiy-uslubiy aniqlik, derivatsion xususiyati, invariantlik, motivatsiya va uning eng to'liq ifodasi bo'lgan tizimlilik); b) *soha terminining ma'nosiga qo'yiladigan talablar* (semantik izchillik, noaniqlikka yo'l qo'ymaslik, ma'noning to'liqligi, sinonimlarning mavjudligi); d) *soha terminiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar* (til va millat omili, milliy terminlarning tarixiy kategoriyasi, termin va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy omillar, ko'p tillilikning ijtimoiy jihatlari); e) *soha terminiga qo'yiladigan pragmatik (funksional) talablar* (qo'llanish xususiyatlari: o'rnatilganlik, xalqarolik, zamonaviylik va ohangdorlilik).

Ushbu bobning *"Pedagogikaga oid terminlar rivojlanishining asosiy tendensiyalari"* deb nomlangan ikkinchi faslida pedagogikaning konseptual va terminologik apparati ochiq va dinamik tizim ekani, unda ham miqdoriy, ham sifat jihatidan o'zgarishlarni boshdan kechirilishi haqida fikr boradi. Pedagogika termin tizimining rivojlanishi asta-sekin yoki to'satdan, ya'ni evolyutsion hamda "inqilobiy" yo'sinda kechishi mumkin[2]. Biroq terminlar sonining ko'payishi har doim ham konseptual apparatning boyitilishini tavsiflamaydi. Shunday ekan, zamonaviy pedagogik terminologiyada mavjud muammolarni tahlil qilish, shuningdek pedagogikaga oid terminlar rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash zarur. Bu aniqlangan funksiyalar nafaqat tilshunoslikda terminologiya tizimini tartibga solish, uning muammolariga yechim topishga hissa qo'shishi bilan

---

[1]Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description. The Sociocognitive-Approach. – Amsterdam, Philadelphia:John Benjamins, 2000. – P.3.

[2]Галагузова М.А. Понятийно-терминологические проблемы внедрения ФГОС ООО в образовательные учреждения/ М.А.Галагузова, Т.С.Дорохова, С.А.Миниханова // Педагогическое образование и наука. – 2013. – № 4. – URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=20922473.

ham ahamiyatlidir. Bu esa pedagogika fanining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunki, dunyoning yagona jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi munosabati bilan pedagogik terminlarni birlashtirish va uyg'unlashtirish jarayonini jadallashtirish muhim sanaladi. Natijada ularning kasbiy til xususiyatlarini anglash va tizimlashtirish imkoniyati kengayadi. Biz pedagogika terminologiyasi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini o'rganar ekanmiz, ularning quyidagi funksiyalarini aniqlab oldik:

1.3- rasm. Pedagogika terminologiyasining funksiyalari

Pedagogika terminologiya tizimining rivojlanishi va shakllanishida ikkita qarama-qarshi tendensiyani kuzatish mumkin: *markazlashtiruvchi* va *markazdan qochish*[1]. Ta'lim o'qitish jarayoni orqali, shuningdek, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari va o'z-o'zini mustaqil o'qitish ta'siri ostida amalga oshiriladi. Shuningdek, ta'lim ijtimoiy institut bo'lib, uning funksiyalari quyidagicha:

1. *Iqtisodiy funksiya* – ijtimoiy-kasbiy tuzilmani hamda zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimni shakllantirish.

2. *Ijtimoiy funksiya* – shaxsni jamiyatda ijtimoiylashtirish jarayonida ishtirok etish, shuningdek, ijtimoiy-sinf va ijtimoiy-maqom tuzilmasining takror barpo bo'lishiga ko'maklashish.

3. *Madaniy funksiya* – ilgari to'plangan madaniy tajribadan shaxsni ijtimoiylashtirish va uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida foydalanish[2].

Ushbu bobning "*Pedagogikaga oid terminlarning ijtimoiy-kommunikativ xarakteri*" nomli uchinchi faslida pedagogik terminlarning jamiyat va muloqot tizimidagi funksional o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Unda terminlarning ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar hamda ta'lim jarayonidagi kommunikativ ehtiyojlar ta'sirida shakllanishi va rivojlanishi izchil tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik terminlarning nutqiy faoliyatdagi roli, ularning kommunikativ maqsadga xizmat qilishi, axborotni uzatish va qabul qilish jarayonidagi samaradorligi lingvopragmatik nuqtai nazardan asoslab berilgan.

---

[1]Иконникова В.А. Становление и развитие англоязычных юридических терминосистем: лингвокультурологический аспект. – Одинцово: АНОО ВПО ОГИ, 2013. – С.151-152.

[2]Краткий словарь по социологии. – М.: Просвещение, 1989. – С.195-196.

Bundan tashqari, terminlarning turli diskursiv muhitlarda (*akademik*, *pedagogik*, *kundalik muloqot*) qo'llanish xususiyatlari ham ochib berilib, ularning ijtimoiy tabaqalanish va kommunikativ vaziyatga moslashuv darajasi tahlil etilgan. Natijada, pedagogik terminlar nafaqat ilmiy-nominativ birlik, balki ijtimoiy-kommunikativ jarayonni tashkil etuvchi, bilim almashinuvi va ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim lingvistik vosita ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Mazkur bobning "*Muammoga kommunikativ-pragmatik yondashuv: pedagogikaga oid terminlar va pedagogik diskurs munosabati*" deb nomlangan to'rtinchi faslida muammoga kommunikativ-pragmatik yondashuv – pedagogikaga oid terminlar va pedagogik diskurs munosabati xususida so'z boradi. Ma'lumki, leksik birliklardan – "termin"larni diskurs bilan bog'lab tadqiq qilish o'rganilayotgan ma'lum bir sohani samarali va muvaffaqiyatli natijasiga yetaklaydi. Chunki, termin oddiy so'zdan aniq ma'noga mutloq moyilligi va barqarorlikka nisbatan moslashuvchanligi bilan farq qiladi. O'rganilgan barcha ma'lumotlarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslikda diskurs ta'rifini aniqlashga to'rtta asosiy yondashuv mavjud:

Pedagogik diskurs mazmunini o'rganar ekanmiz, shaxsni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri bo'lgan refleksiya kategoriyasini qayd etish maqsadga muvofiq. Ushbu atamani izohlashda ikki yondashuv farqlanadi: *keng* va *tor*. Keng ma'noda refleksiya fikrning bevosita jarayon yoki holat doirasidan tashqariga chiqishini anglatadi. Tor ma'noda esa refleksiya o'z faoliyatini anglash, kasbiy hamda shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirish maqsadida boshqalar tajribasi bilan o'z yondashuvlarini qiyoslashni bildiradi. O'zbek tilida o'qituvchining ijtimoiy tip maqomidagi xususiyatlari terminologik qatlamda ajralib turadi, shunga ko'ra terminlarning semantik-stilistik paradigmasi shakllantirildi: *o'qituvchi, ustoz, muallim (muallima), murabbiy, tarbiyachi, pedagog, dotsent, professor, murabbiy, instruktor, o'rgatuvchi, boshqaruvchi, domla, otinoyi, otinbibi, maktabdor, mentor, trener, master, repetitor, tyutor* va b. Biroq, semantik jihatdan har qanday sohada fan bilimlarini yetkazuvchi (*o'qituvchi*) yoki o'sib borayotgan shaxsning (*tarbiyachi, murabbiy*) xarakterini shakllantirishga ta'sir qiluvchi shaxsni bildiruvchi so'zlar qarama-qarshidir. *Ingliz tilida* ham "*teacher*" (o'qituvchi) tushunchasi bilan bog'liq o'qituvchining ijtimoiy tip maqomidagi xususiyatlarini anglatuvchi bir qator terminlar mavjud: *teacher, preceptor, mentor, guide; minister, pastor; guru, sage; instructor, educator; tutor, private tutor, coach; assistant teacher, department head, head teacher, head, headmaster or mistress, principal;*

student teacher, monitor, dean, chairman or chairwoman, chairperson, lecturer va boshq. Pedagogik diskursning asosiy toifalari – izohlash, intertekstuallik, interdiskursivlik, parafrastiklik va refleksiya. Ushbu toifalar pedagogik voqelik ishtirokchilarining nutqiy xulq-atvorini shakllantirishni ta'minlaydi. Natijada, pedagogikaga oid terminlar pedagogik diskursning ajralmas va tizim hosil qiluvchi komponenti sifatida namoyon bo'lib, ular orqali kommunikativ-maqsad ifodalash hamda ta'lim jarayonini samarali boshqarish mexanizmlari lingvopragmatik jihatdan asoslab berilgan.

"Ingliz va o'zbek tillarida pedagogika oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik yondashuv" deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogika terminlarining sotsiolingvistik jihatlari ochib berilgan. Bobning *"Pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik muammolari"* deb nomlangan birinchi faslida ushbu soha terminlarining ichki tuzilishi jamiyat omillari ta'sirida vujudga kelishi ta'kidlangan. Pedagogikaga oid terminlar umumistemolda qo'llanishiga ko'ra jamiyatning eng faol guruhlari kesimida quyidagicha tasniflanadi:

1. Jamiyatdagi ayollar guruhiga mansub bo'lgan pedagogik terminlar.

Jamiyatning ayollar qatlami uchun ko'plab pedagogik terminlar ishlatilishini ta'kidlab o'tish joizdir. Sababi, ushbu terminlar ingliz va o'zbek tillarida ham muloqotda faol ekanligiga guvohi bo'lishimiz mumkin: Masalan*: pedagog ayollar jamoasi uchun*, *ustoz*, *murabbiy*, *guruh rahbar*, *ilmiy maslahatchi*, *dekan, xotin-qizlar masalalari bo'yicha* shug'ullanuvchi lavozimlar. Jamiyatning *barcha ayollar jamoasi uchun esa* <u>o'zbek tilida:</u> *gender tingligi*[1], *ayollar yetakchiligini rivojlantirish*, *ayollarning ijtimoiy integratsiyasi*, *ayollar huquqlari ta'limi-reproduktiv ta'lim*, *ayollar daftari*, *ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar* bandligini ta'minlash[2]. <u>Ingliz tilida</u> esa: *gender sensitive pedagogy*, *feminist pedagogy*, *gender equality education*, *women's empowerment*, *reproductive health education*, *women's leadership training gender-sensitive teaching*;

2. Jamiyatdagi yoshlar guruhiga mansub pedagogik terminlar.

<u>*Mamlakatimizda*</u> *yoshlarni qo'llab quvvatlash*, "*besh tashabbus olimpiadasi*", "*ibrat farzandlari*" ,"*zakovat*", *yoshlar agentligi*, *yoshlar daftari*, *yosh tadbirkorlar* kabi pedagogikaga oid terminlar ushbu jarayonda umumiste'molda yetakchilik qiladi[3]. <u>Ingliz xalqi yoshlari</u> ham bu kabi imkoniyatlardan mustasno emas: *adolecent development*, *life skills education*, *career guidance*, *peer education*, (SEL) *social and emotional learning* kabilar pedagogik termin bo'lsada jamiyatning yoshlar qatlami uchun zarur qo'llanilib kelinadigan terminlardir[4].

Pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik muammolari ingliz tili misolida quyidagicha:

1. *Complexity of terminology* (terminologiyaning murakkabligi). Ingliz tilida pedagogik terminologiya ko'pincha ilmiy va murakkab bo'lib, o'quvchilar va hatto o'qituvchilar uchun ham tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Bu muammo,

---

[1] http://nhrc.uz/oz/news/ozbekistonda-gender-siyosatiga
[2] https://gendermadad.uz/oz/category/625
[3] https://lex.uz/docs/-6811936
[4] https://www.personifyleadership.com

ayniqsa, ilmiy terminlarni keng qo'llashda namoyon bo'ladi. Masalan, *"social-emotional learning (SEL)"*, *"experiential learning"*, *"authentic assessment"*, *"constructivist pedagogy"*, *"scaffolding"*, *"culturally responsive pedagogy"*, *"universal design for learning (UDL)"*, *"inquiry-based learning"* kabi terminlar oddiy o'quvchi yoki ota-ona uchun murakkab va tushunarsiz bo'lishi mumkin. Terminologiyaning murakkabligi ta'lim va muloqot jarayonida noaniqliklarga olib keladi. Natijada o'quvchilar va o'qituvchilar terminlarni tushunish va qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishiga sababdir. Shu bois, bu muammoni bartaraf etish uchun terminlarni soddalashtirish, ularning ma'no doirasini aniqlashtirish va qo'llanishini izchillashtirish zarur.

2. *Cultural differences* (madaniy farqlar). Ingliz tilida ishlatiladigan pedagogik terminlar ko'pincha G'arb madaniyatiga asoslangan bo'lib, boshqa madaniyatlar uchun mos kelmasligi mumkin. Bu holat xalqaro talabalarga yoki turli madaniy muhitda ishlaydigan o'qituvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Masalan, *"culturally responsive teaching"*, *"multicultural education"*, *"individual learning plans"* yoki *"self-directed learning"* kabi terminlar G'arb madaniyatida keng qabul qilingan bo'lsa-da, boshqa madaniyatlarda kamroq qo'llaniladi.

3. *Linguistic diversity* (lingvistik xilma-xillik). Dunyo bo'ylab ingliz tilining bir qancha variantlari mavjud, bu variantlar o'rtasidagi lingvistik farqlar pedagogik terminologiyani tushunishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, Amerika va Britaniya ingliz tillarida pedagogik terminlarning ma'nosi va qo'llanilishida farq qilishi mumkin. Bu farqlar xalqaro ta'lim muhitida noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

Pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik muammolari o'zbek tili misolida:

1. *Terminologiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi.* O'zbek tilida pedagogik terminologiya yetarli darajada rivojlanmaganligi va ko'pincha xorijiy atamalarni qabul qilish va o'zlashtirish yoki tarjima qilishga olib kelgan. Bu holat o'quvchilar va o'qituvchilar uchun tushunishni qiyinlashtiradi. Masalan, "*metodika*" yoki "*didaktika*", *"tutor"* kabi terminlar o'zbek tilida to'liq tushunilmasligi yoki noto'g'ri qo'llanilishi mumkin.

2. *Terminologiyaning standartlashtirilmaganligi.* O'zbek tilida pedagogik terminologiyaning standartlashtirilmaganligi o'quv jarayonida noaniqliklarga olib keladi. Turli maktablar va o'qituvchilar turlicha terminlardan foydalanishlari mumkin, bu esa o'quvchilar uchun chalkashliklar tug'diradi. Masalan, bir maktabda *"ta'lim texnologiyalari"* atamasi qo'llanilsa, boshqa maktabda *"o'qitish texnologiyalari"* atamasi qo'llanishi mumkin.

3. *Madaniy va lingvistik xilma-xillik.* O'zbekistonning lingvistik va madaniy xilma-xilligi pedagogik terminologiyani tushunishda va qo'llashda qiyinchilik tug'diradi. Bu holat, ayniqsa, ko'p millatli maktablarda va sinflarda sezilishi mumkin.

Ushbu bobning *"Pedagogikaga oid terminning ijtimoiy tabaqalanishi"* deb nomlangan ikkinchi faslida soha terminlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning omillari hamda ijtimoiy tabaqalanishi singari masalalar sotsiolingvistikaning

o'rganish obyektiga aylantirilgan. Tadqiqotda bu singari muammolarni o'rganish dolzarb masalalar sarasiga olib chiqilgan. Biroq, bu *ijtimoiy tabaqalanishi* pedagogikaga oid terminning vazifaviy guruhlarini ham o'rganadi. Chog'ishtirilayotgan tillar pedagogika terminologiyasining ijtimoiy tabaqalanishida *shaxs nomlarini* anglatuvchi terminlari tahliliga to'xtalib o'tsak:

1. Ijtimoiy hayotda ta'lim-tarbiya, maktab, o'quv yurtlari ishlarini boshqarish bilan shug'ullanuvchilar.

2. Jamiyatda ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchilar.

3. Jamiyatning ta'lim oluvchilar kabi guruhlarga ajratilib chog'ishtirilyotgan tillarda misollar bilan izohlangan.

Ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning ijtimoiy tabaqalanishini keltirilgan va *ijtimoiy sinflar* va *guruhlar* bo'yicha tasniflangan. Masalan, *ta'lim darajasi bo'yicha tabaqalanish* – OTM darajadagi terminlar: *"constructivist pedagogy"*, *"scaffolding"*, *"metacognition"* kabi terminlar ko'pincha oliy ta'lim muassasalari va ilmiy doiralarda qo'llaniladi. Maktab darajasidagi terminlar: *"active learning"*, *"inquiry-based learning"*, *"formative assessment"* kabilar ko'proq maktab va litseylarda qo'llaniladi.

Shunday qilib, pedagogik termin ham termin muhitining muayyan komponenti, uning ijtimoiy tahlilining "tashqi" aspekti yakuniy natijasida muayyan ijtimoiy tarixiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan pedagogik termin muhitining tahliliga asoslanadi.

Mazkur bobning uchunchi fasli *"Pedagogikaga oid terminlarning ijtimoiiy muhitida "pedagogik til" kontakti tushunchasi talqini"* mavzusida bo'lib, unda soha terminlarining ijtimoiy muhitida *"pedagogik til"* kontakti tushunchasi talqini ingliz va o'zbek tillarida turlicha namoyon bo'ladi. Bu tushuncha o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, ota-onalar va boshqa jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi muloqot va kommunikatsiyani anglatadi. Pedagogik til kontakti ta'lim jarayonida terminologiyaning to'g'ri qo'llanilishi va tushunilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida *"pedagogik til"* kontakti (*Pedagogical Language Contact*) tushunchasi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi til aloqalarini anglatadi. Mazkur tushuncha pedagogik terminologiyaning to'g'ri tushunilishi va qo'llanilishi uchun muhim. Ma'naviy hayot sohasiga kelsak, bu yerda markaziy o'rin egallaydi, *shaxsning ijtimoiy tajribag*a ega bo'lish, tanish bo'lish ehtiyoji madaniy qadriyatlarni, *xulq-atvor* tamoyillari va normalarini o'zlashtirishda jamiyat va muayyan ijtimoiy muhit va bularning barchasi bir biri bilan aloqadorlik kasb etadi va *uning xususiyatlari quyidagicha:*

Kommunikativ effektivlik: pedagogik til kontakti o'qituvchi va o'quvchilar hamda jamiyatning turli vakillari o'rtasidagi kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar murakkab pedagogik terminlarni tushuntirishda aniq va ravshan bo'lishlari kerak. **Masalan:** **"***When teachers use clear scaffolding techniques, students are better able to grasp complex concepts***"**.

Terminologiyaning standartligi: ingliz tilida pedagogik terminlarning bir xil tushunilishi va qo'llanilishi uchun standartlashtirish muhimdir. Bu o'quvchilarning turli darajadagi bilimlarini bir xilda oshirishga yordam beradi.

Masalan: "*Using standardized terms like 'formative assessment' ensures all students understand the feedback process*".

Kontekstual moslashuv: pedagogik til kontakti o'qituvchilarning terminlarni madaniy va ijtimoiy kontekstga moslashtirishlarini talab qiladi. Bu jarayon o'quvchilarning terminlarni o'z madaniyatlari va hayotiy tajribalariga mos ravishda tushunishlariga yordam beradi. **Masalan:** "*Adapting examples to fit students' cultural backgrounds makes learning more relevant and effective*". Jamiyatning *pedagogik til kontakti* tufayli vujudga keluvchi sotsiolingvistik hodisalarga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardan iboratdir:

- *pedagogik til kontakti tufayli shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalash*ning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z vatani va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- *pedagogik til kontakti tufayli keng bilim saviyasiga ega bo'lishi*, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- *pedagogik til kontakti tufayli yoshlar pedagogikasi, psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika kabi yo'nalishlarda faol bo'lish* va jamiyatni har bir jabhasida muloqot vositasi sifatida foydalanish;

- *pedagogik til kontakti tufayli ta'lim va tarbiya* metodikasini egallashi va uni jamiyatda qo'llashi lozim;

- *pedagogik til kontakti tufayli yoshlarni bilishi*, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, empatiya, his-tuyg'ulariga ega bo'lishi;

- *pedagogik til kontakti tufayli mantiq*, nutq, ta'limning ifodali vositalari va pedagogik takt (nazokat)ga ega bo'lishi;

- *pedagogik til kontakti tufayli jamiyatning barcha qismi foydalanishi* lozim bo'lgan pedagogikaga oid terminlar asosida yaratilgan aloqalar va ular uchun tushunarli ma'noga ega bo'lishi.

Mazkur bobning to'rtinchi fasli *"Pedagogikaga oid terminlarning diskursiv xususiyatlari"* deb nomlangan. Pedagogik terminlarning diskursiv xususiyatlari ingliz va o'zbek tillarida turlicha bo'lishi mumkin. *Ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning diskursiv xususiyatlari:*

1. **Kommunikativ funksiyalar***: Ta'lim jarayonida qo'llanilishi*: Ingliz tilida pedagogik terminlar ta'lim jarayonida aniq va tushunarli muloqotni ta'minlash uchun qo'llaniladi. *Pragmatik funksiyalar*: Pedagogik terminlar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi, bu esa o'quv jarayonini optimallashtiradi.

2. *Madaniy va ijtimoiy kontekst:* **madaniy moslashuvchanlik**: *ingliz tilida pedagogik terminlar turli madaniy kontekstlarga moslashtiriladi, bu esa o'quvchilarning ta'lim materiallarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.* **Ijtimoiy tabaqalanish***: pedagogik terminlar ijtimoiy sinflar va guruhlar bo'yicha farqlanadi, bu esa ushbu guruhlarning muloqot jarayonida terminlarning turlicha qo'llanishiga olib keladi.*

3. *Lingvistik xususiyatlar*: **sintaktik tuzilmalar**: *ingliz tilidagi pedagogik terminlar ko'pincha murakkab sintaktik tuzilmalarga ega bo'ladi.* **Leksik**

xususiyatlar: *pedagogik terminlar ilmiy va texnik atamalar bilan boyitilgan bo'lib, ular aniq va tushunarli muloqotni ta'minlash uchun zarurdir.*

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **"Ingliz va o'zbek pedagogika terminoleksikaning pragmatikasi tasnifi"**ga bag'ishlangan. Yangi O'zbekiston sharoitida *milliy tarbiya* va *ta'lim tushunchasiga* keng qamrovli islohotlarni amalga oshirilmoqda. Zotan, *mustaqillik fikr - mulohazalarda ozod*, o'z haq - huquqini yaxshi taniydigan, *izlanuvchan*, *zamonaviy bilimga* ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan *barkamol insonni tarbiyalashni* talab etadi desak yanglishmagan bo'lamiz. Ushbu bobning birinchi bo'limi *"Pedagogika terminologiyasida "o'z" va "begona"lik"* deb nomlanadi. Pedagogika terminologiyasida "o'z" va "begona"lik muhitida quyida ularning har biri bilan bog'liq bo'lgan odatiy xususiyatlar mavjud: <u>*pedagogika terminologiyasida "o'z"lik muhitida*</u>: *madaniy ahamiyatga egalik- Cultural Relevance:* ta'lim mazmuni, misollar va o'quvchilarning madaniy kelib chiqishi, tajribasi va shaxsiyatiga tanish va mos keladigan kontekstlarga ishora qiladi. *Shaxsiy aloqa- personal communication*: ushbu nutq vakllarning shaxsiy hayoti, qiziqishlari va oldingi bilimlariga mos keladigan materiallar, hikoyalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olishga undaydi.

Bobning ikkinchi faslida *"Pedagogikaga oid terminologik o'zlashmalar pragmatikasi"* tahlil qilingan. *Pedagogikaga oid terminlar o'zlashmalari* - bu boshqa tillardan kirib kelgan va biror tilga moslashgan so'z yoki pedagogik termindir. Bu jarayon ko'pincha ilm-fan, texnika, san'at, va ta'lim sohalarida sodir bo'ladi. *Pedagogikaga oid terminlar o'zlashmalari pragmatikasi* – pedagogikaga oid terminni qo'llashning amaliy jihatlarini o'rganadi, ya'ni ma'no, kontekst va til birligi orasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Aslida o'zlashgan terminlarning ma'no va funksional jihatdan qanday qo'llanishini o'rganish jarayonidir. Bu jarayon pedagogik terminlarni to'g'ri qo'llash va kontekstda ularning to'g'ri anglashilishini ta'minlaydi. Pedagogikaga oid terminlarning ma'nosi va ularning ishlatilishi vaziyatga bog'liq, termin va madaniyatning o'zaro aloqasini namoyon qiladi. Pedagogikaga oid terminlarda o'zlashmalar keng qo'llaniladi va ularning to'g'ri o'zlashtirilishi, qo'llash ko'nikmalariga e'tiborliroq bo'lish lozim. ***Adaptatsiya-*** pedagogikaga oid terminlarda o'zlashmalarning yangi til va madaniyatga moslashuvi jarayoni. Bu jarayonda so'zlarning talaffuzi, yozilishi va ma'nosi qisman o'zgarishi mumkin.

Pedagigikaga oid terminlar, ta'lim sifatida ham tanilgan zamonaviy *onlayn ta'lim texnologiyaning rivojlanish*i va ta'lim amaliyotidagi o'zgarishlar bilan sezilarli darajada rivojlandi. Hozirgi globallashgan zamonda barcha soha kabi, pedagogik terminalogiyada ham sezilarli darajada umumistemoldagi "o'z" va "begona"likni keltirib o'tishimiz mumkin. *Ingliz tilida* umumistemoldagi pedagogik terminlar kelib chiqishi boshqa tillardan o'zlashgan va qo'llanilish jihatdan farqlanadi: masalan, *pedagogy-* greek (paidagōgia), *gidactics-* greek (didaktikos), *curriculum-* latin (curriculum), *assessment-* latin (assessus), *accreditation-* latin

(accreditare) va b.lar. Ushbu terminlar zamonaviy pedagogik terminologiyada turli xil lingvistik ta'sirlarni ko'rsatadi, ular yunon, lotin va ispan tillaridan ingliz umumistemoliga aylangan va har bir termin nafaqat ta'lim tendensiyalari va innovatsiyalarni aks ettiradi, asosiy e'tibor ta'lim natijalarini oshirishga, o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rag'batlantirishga hamda o'quvchilarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlarini qondirish va boshqa sohada ham o'ziga xos tarixiy kontekst va ma'noga egadir. *O'zbek tilidagi* pedagogik terminlar ko'pincha tarixiy va madaniy aloqalar tufayli turli tillardan, xususan, rus, ingliz va boshqa tillaridan o'zlashganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan pedagogik terminlardan keltiramiz:

Umumiste'moldagi pedagogik terminlar	Kelib chiqishi
Universitet (университет), *Klass* (класс), *Direktor* (директор), *Lektor* (лектор), Prezentatsiya (презентация), *Konsultatsiya*(консультация), *Laboratoriya* (лаборатория), *Student* (студент), *Ekzamen* (экзамен), *Zachet* (зачет). *Institut* (институт), *Pedagogika* (педагогика), *Metodika* (методика), *Kafedra* (кафедра), *Diplom* (диплом), *Referat* (реферат), *Konferensiya* (конференция), *Seminar* (семинар), *Akademik litsey* (академик лицей), *Doktorantura* (докторантура), *Magistratura* (магистратура), *Grafik* (график), *Konspekt* (конспект),…	*Rus tilidan* kelib chiqqan va ingliz va *o'zbek umumistemolida* mavjud
Internet saytlari- *Websites,* on line; *on-line*-onlayn, *off line; off-line*-oflayn, *Hemis*, Kreativlik -*creativity*, *master class*-master klass, *monitor*-monitor, *Moodle*-modul, *Zoom*-Zum, sertifikat- certificate…	*Ingliz tilidan o'zbek umumistemolida* mavjud

"*Pedagogikaga oid terminologik neologizmlar pragmatikasi*" deb nomlangan uchinchi faslida neologizm - yangi kirib kelgan yoki tilga kiritilgan yangi so'z yoki ibora. Masalan: "*blended learning*" (aralash ta'lim) yangi pedagogik yondashuv sifatida o'zbek tilida qo'llanilmoqda. *Pedagogikaga oid terminologik neologizmlar pragmatikasi* - til birligi (pedagogik termin, ibora)ning kontekstdagi ma'nosi va amaliy qo'llanilishini o'rganadigan sohadir. "*MOOC" (massive open online course)* - keng tarqalgan va qabul qilingan ta'lim platformasi. Pedagogikaga oid terminlarda neologizmlarning paydo bo'lishi odatda yangi pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar bilan bog'liq."*flipped classroom*" (o'quvchining mustaqil, noananaviy uslubdagi darsi) - yangi ta'lim modeli; "*STEM*" - ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika integratsiyasi; "*e-learning*" - elektron ta'lim texnologiyalari; "*edutainment*" – ta'lim va o'yin-kulgi elementlarini birlashtirish. Pedagogik terminologik neologizmlar pragmatikasi o'zbek va ingliz tillarida yangi tushunchalarni qabul qilish va ulardan foydalanishning o'ziga xosliklarini o'rganadi. Ushbu jarayon ta'lim sifatini oshirish va yangi bilimlarni o'zlashtirishda muhim sanaladi.

Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminologik neologizmlar pragmatikasini tahlil qilar ekanmiz quyidagi guruhlarga tasnifladik:

1.Rasmiy ta'limga oid neologizmlar**-** *neologisms related to formal education.*

O'zbek tilida: *tyutor, mok test, free education, innovatsion metod, aktiv talabalar, passiv darslar, qorako'l maktabi, qorako'l tajribasi, prezident maktabi, ijod maktabi, ixtisoslashgan maktab;* Ingliz tilida: *edutainment, flipped classroom, gamification, MOOC (massive open online course), blended learning*; kabi

pedagogikaga oid terminologik neologizmlarni rasmiy ta'lim sohasiga ko'p ishlatilishiga guvohi bo'lganmiz.

2.Ta'limga xizmat qiluvchi tizimga oid neologizmlar- *neologisms related to the system serving education*

O'zbek tilida: *zoom, google classroom, modul, onlayn maktab, onlayn dars, onlayn darslik, onlayn mashg'ulot, onlayn seminar, vebinar, veb-kurs, video-ma'ruza, internet-dars;*

Ingliz tilida: *e-learning, learning management system (LMS), personalized learning, digital citizenship, virtual reality (VR) in education* ushbu neologizmlar zamonaviy ta'lim tizimlarida texnologiya ta'sirini aks ettirib[1], hisoblash resurslari va ta'limga innovatsion ishlab chiqarishlar integratsiyasini ta'kidlaydi.

Mazkur bobning to'rtinchi faslida *"Pedagogikaga oid terminlarning leksikografik portreti tajribasi"* deb nomlanadi va pedagogika sohasidagi terminlarning leksikografik portret tushunchasi, odatda, biror atamaning lug'aviy ma'nosi, ma'no jihatidan rivojlanishi va uning pedagogik amaliyotdagi o'rnini o'rganish jarayonini ifodalaydi. Bu tushuncha, asosan, maxsus sohalarda ishlatiladigan yangi yoki mavjud terminlar uchun qo'llaniladi. O'zbek va ingliz tillarida pedagogik terminlarning leksikografik portreti yaratish tajribasi mazkur tillardagi terminlarning lug'aviy tavsifi, sinonimlari, antonimlari, va ularning turli kontekstlarda qo'llanilishini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, pedagogikaga oid terminologik birikmalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: (Izoh: PTL-pedagogikaga oid terminlar leksikografikasi)

PTL ekspress tushunchalari;

PTL ma'lum darajada barqarorlikka ega;

PTL komponentlari o'zining bevosita nominativ ma'nosini saqlab qoladi (pedagogik iboralar, lekin har doim ham o'zining bevosita nominativ ma'nosini saqlab qolmaydi). Pedagogik iboralar uchun xarakterli xususiyat neytral uslubga tegishli, shuningdek sinonimlarning yetishmaslik xususiyatidir.

Biz izlanishlarimiz davomida, ingliz tili pedagogik terminlar leksikografikasiga mansub *ikki komponentli* atributiv so'z birikmalarining shakliy tuzilish xususiyatlarini hisobga olish quyidagi turlarni ajratib:

1. Ikki komponentli sifatdosh so'z birikmalarining dominant turi sifatdoshli terminologik so'z birikmalarining sifatdosh-substantiv modelidir. (714 tadan 352 birlik), masalan: *analogical dictionary*- analogik lug'at; *analytic definition*- analitik ta'rif; *canonical form* - kanonik shakl, *illustrative example*- tasniflovchi yorliq; Bunday iboralarning tuzilish formulasi A + N birikmasidir (bu ishda muallif ingliz tilidagi iboralarning strukturaviy turlarini ifodalash uchun ishlatiladigan umume'tirof etilgan qisqartmalar tizimiga amal qiladi: N – ot; N's – egalik holatidagi ot; A - sifat; Ving - -ing bilan tugaydigan fe'l shakli; Ved - -ed bilan tugaydigan og'zaki shakl; P - old qo'shimcha). Masalan: *primary definition*-birlamchi ta'rif; *regional dictionary*-mintaqaviy lug'at; *alphabetical order*- alifbo tartibi.

---

[1] https://www.lexico.com/definition/pedagogy

2. Bir oz kamroq tarqalgani *atributiv iboralarning mazmunli modeli* bo'lib, bu yerda ot prepozitiv ta'rif sifatida ishlaydi, masalan, asosiy so'z, iqtibos fayli, yorlig'i hisoblanadi. Ingliz tili pedagogik terminlar leksikografikasiga ushbu modellar taxminan 225 ta birlikga guvoh bo'ldik. Strukturaviy formulasi <u>N + N</u> qisqartmasi (ot + ot) bilan ifodalangan iboralar zamonaviy ingliz leksikografik terminologiyasi tizimida osongina yaratilgan desak adashmagan bo'lamiz. Bunday terminologik shakllanishlar qo'shma so'z va iboralarni bir-biridan ajratib turadi. <u>N + N</u> tipidagi ikki komponentli iboralarni tahlil qilishda asosiy strategik yo'nalishdir. Ingliz tili pedagogik terminlarning leksikografik qatlamida <u>V+ing + N</u> iboralari, mas.: *defining pedagogical equivalent*- pedagogik ekvivalentni aniqlash; *gleaning excerption*-iboralarni yig'ish; *pedagogical rhyming dictionary*-pedagogik qofiyalash lug'ati, <u>Ved + N</u> modeliga nisbatan leksikografik terminologiyada biroz kamroq tarqalgan. Ular ikki komponentli iboralarning umumiy sonining atigi 4.5% ni tashkil qiladi va o'rganilgan atamalar umumiy sonining 3% ni tashkil qiladi. *O'zbek tilida* so'z birikmasining yadro komponentiga bosh gapda bo'lib, hozirgi zamon kesimi sifatdosh xususiyatiga ega bo'ladi, chunki u sifatdosh bilan ifodalangan bir xil turdagi xususiyatlarni ifodalash vositasiga aylanadi. O'zbek tili pedagogik terminlarning leksikografik qatlamida quyudagicha lug'at turlari ko'plab uchraydi. Masalan: <u>N +N+ik+N</u>: *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati*; *o'zbek tilining orfoepik lug'ati*; *o'zbek tili sinonimik izohli lug'ati; o'zbek tili antonimik izohli lug'ati;* <u>N+N (-cha):</u> *Fransuzcha-o'zbekcha lug'at; ruscha-o'zbekcha lug'at; o'zbekcha-forscha lug'at.* Mazkur bobning beshinchi qismi *"Pedagogikaga oid terminlarning milliy o'ziga xoslikni belgilash pragmatikasi"* deb nomlangan. Pedagogikaga oid terminlarning milliy o'ziga xosligini belgilash pragmatikasi, madaniy va tilshunoslik nuqtai nazaridan, muhim ahamiyatga ega. Har bir millatning ta'lim tizimi o'ziga xos madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar bilan bog'liq bo'lib, bu o'ziga xoslik pedagogik terminologiyada ham aks etadi. Ingliz va o'zbek tillarida pedagogik atamalarni tushunish va ulardan foydalanishning pragmatik jihatlari ushbu tillarning o'ziga xos madaniy kontekstlariga tayanadi. *Pedagogikaga oid terminlarning milliy o'ziga xoslikni belgilash pragmatikasi* deganda biz har qanday terminalogiya sohasining shakllanishi va rivojlanishi o'sha yo'nalishga nisbatan qiziqish, yangilanish paydo bo'lishidan boshlanadi. Terminshunoslik ham bundan mustasno emas. Ushbu sohaning yuzaga kelish va taraqqiyoti bevosita termin tizimi, lisoniy birliklarning qurilishi, tarkib topishi va ulardan kundalik hayotda, ijtimoiy faoliyatda foydalanishga oid savollarga javob topishdan boshlanadi. Lekin pedagogikaga oid terminlarda ham xuddi boshqa soha terminlarida bo'lganidek, ilmiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi muhim shartdir. *Pedagogik terminolingvistikasida pragmatik xususiyatlariga* ma'nolar tizimi quyudagilar atrofida tuzilgan:

a) pedagogikaga oid terminlarning asosiy vazifalari asosida: nomlash vazifasi, aloqa funksiyasi;

b) pedagogikaga oid terminlarning barcha turdagi bog'liqliklarni ifodalash funksiyasi;

c) pedagogikaga oid terminlar pragmalingvistikasining malakaviy va baholash yuzasidan funksiyasi;

d) pedagogik diskursda ishlatilayotgan terminlar nafaqat semantik yuklama, balki pragmalingvistik darajada stilistik vositalar, subyektiv nutq malakalari va konseptual strukturalar orqali inson ongining bilish faoliyatiga daxldor funksional xususiyatlarni ham aks ettiradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillari pedagogik nutqining pragmalingvistik tahlili**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli *"Ingliz va o'zbek tillaridagi "pedagogik nutq" tavsifi"* mavzusiga oid nazariy masalalarni qamrab oladi.

Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillaridagi *"pedagogik nutq"* tavsifi, ushbu millatlarning *"xalq pedagogikasi tarbiya"* borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi *"pedagogik nutq"* qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabilarning ma'lumotlarni umulashtirish natijasida paydo bo'ladi. *Pedagogik nutq* ilm ahli vakllari hamda jamiyatning barcha sohalari o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida muhim hisoblanadi. Bu nutqning asosiy vazifasi bilimlarni yetkazish, o'quvchilarni motivatsiyalash va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'zaro aloqa vositasi sifatida barcha soha vakillari nutqida aks etishi ham mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik nutqning xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning farqlari va o'xshashliklarini aniqlash mumkin.

Izlanishlarimiz davomida *pedagogik nutqning asosiy xususiyatlarini quyidagicha tahlil qildik:*

1. *Informativlik (Informativeness)*. Pedagogik nutq bilimlarni yetkazish vositasi sifatida katta informatsion yuklamaga ega. Bu nutqda o'qituvchi ilmiy tushunchalar, nazariyalar va faktlarni o'quvchilarga yetkazadi.

2. *Motivatsiyaviylik (Motivational)*. O'qituvchi pedagogik nutq orqali o'quvchilarni ta'lim olishga, ilmiy izlanishlarga va o'zini rivojlantirishga undaydi. Masalan, o'qituvchi: "Agar siz muntazam ravishda o'qish va izlanishda davom etsangiz, kelajakda katta yutuqlarga erishasiz" deb rag'batlantiradi.

3. *Didaktik xususiyatlar (Didactic features)*. Pedagogik nutqning didaktik xususiyatlari o'quv materialini strukturaviy tarzda yetkazish va uni tushunarli qilishga qaratilgan. Bu jarayonda o'qituvchi turli uslubiy yondashuvlardan foydalanadi.

Ingliz tilida pedagogik nutq turli ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi va uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat (ta'lim olish va ta'lim berish nazaridan olib qaralganda): 1. Morphological and syntactic features (*Morfologik va sintaktik xususiyatlar)*. Ingliz tilida pedagogik nutq murakkab sintaktik tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, uzun va murakkab gaplar, passive voice, relative clauses keng qo'llaniladi. 2. Lexical features (*Leksik xususiyatlar)*. Ingliz tilida pedagogik nutqda ilmiy va texnik terminlar ko'p ishlatiladi. O'qituvchi o'quvchilarga ilmiy terminlarni tushuntirish uchun ko'pincha sinonimlar va izohli iboralarni qo'llaydi. 3. Communicative features (*Kommunikativ xususiyatlar)*. Ingliz tilidagi pedagogik nutq ko'pincha interaktiv bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar

hamda ushbu nutq vakillari o‘rtasida savol-javob, munozara va bahs-munozaralar orqali bilim almashinuvi sodir bo‘ladi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli *“O‘qituvchi nutqidagi pedagogikaga oid terminlar”* deb nomlangan. O‘qituvchi nutqi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarga bilimlarni samarali yetkazish, ularni motivatsiyalash va o‘quv materialini tushunarli qilish vazifalarini bajaradi. Pedagogik nutqda qo‘llaniladigan terminlar bu jarayonni yanada samarali va tushunarli qiladi. Ushbu maqolada pedagogikaga oid terminlar va ularning ta’riflari o‘zbek va ingliz tillarida keltiriladi.

Bizni fikrimizcha o‘qituvchi nutqining maqsadiga ko‘ra uning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

1. *O‘qituvchi nutqining axborot almashinuv maqsadiga ko‘ra muloqoti* (*communication of the teacher's speech for the purpose of information exchange*). Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi nutqining asosiy maqsadi – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali ma’lumot almashinuvini ta’minlash. Bu maqsadga erishish uchun asosiy jihatlar, strategiya va terminlar faol bo‘lishi tabiiydir: *Clarity and Precision* – Aniqlik; *Structured and Organized Presentation* – Tuzilgan va tashkillashtirilgan taqdimot; *Use of Visual Aids* – Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish; *Active Listening and Responsiveness* – Faol tinglash va javob berish; *Encouraging Participation* – Ishtirok etishni rag'batlantirish; *Checking Understanding* – tushunishni tekshirish; Moslashuvchanlik – *Adaptability and Flexibility;* Mustahkamlash va takrorlash – *Reinforcement and Recapitulation* v.b. Muloqotning ushbu jihatlariga e’tibor qaratish orqali o‘qituvchilar axborot almashinuvi samarali bo‘ladigan, o‘quvchilar o‘z ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlanayotganini his qiladigan va ta’lim maqsadlariga yanada kengroq erishiladigan inklyuziv va qiziqarli ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

2. O‘qituvchi *nutqining ta’sir ko‘rsatishiga ko‘ra muloqoti – communication according to the speech effect of the teacher's speech.* Muloqotda o‘qituvchi nutqining ta’sirchanligi hamda o‘quvchilarning bilim olishi va faolligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi nutqining samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va muloqotning ushbu turida quyudagi pedagogik terminlarga murojaat qilinadi- qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish- *creating a supportive learning environment*, aloqalarni o‘rnatish – *building relationships,* fikr mulohazalar- *feedback and assessment.*

3. *O‘qituvchi nutqining baho munosabatini ifodalashga ko‘ra muloqoti- communication of the teacher's speech in order to express the evaluation attitude:* muvozanatli yondashuv- *balanced approach,* aniqlik va oshkoralik- *clarity and transparency,* rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlash - *encouragement and support,* talabalaring faolligi- *student engagement.*

4. O‘*qituvchi nutqining shaxsiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, yaxshilash maqsadiga ko‘ra muloqoti- communication of the teacher's speech with the aim of establishing and improving personal relations-* ijobiy tildan va ijobiy so’zlardan foydalanish- *use of positive language,* yaxshi tinglovchi bo‘la olish- *active listening, personalization-*bu asosan ingliz tilida faol, ya’ni suhbatdoshingiz sizni

fikringizni yoki muammoni o'z muammosi kabi qabul qilish, qayg'urish va qo'llab quvvatlash - *empathy and support*, ishonchni mustahkamlash - *building trust*.

5. O'*qituvchi nutqining huquqiy munosabatlarni shakllantirishga ko'ra nutqiy muloqoti- speech communication of the teacher's speech according to the formation of legal relations-* hujjatlar- *documentation,* maxfiylik- *confidentiality,* rozilik va ruxsat- *consent and permission*, kasbiy xulq atvor- *pofessional conduct*, qonunva qarorlarga rioya qilish- *compliance with laws and policies*; maxsus ta'lim va turar joy- *special education and accommodations*.

Ta'lim muassasalarida muloqotning ushbu tamoyillariga rioya qilish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ma'murlar bilan ijobiy va qonuniy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Samarali muloqot nafaqat akademik muvaffaqiyatga yordam beradi, balki maktab jamoasida hurmat, ishonch va mas'uliyat madaniyatini rivojlantiradi. Ma'lum bo'ladiki, o'qituvchi nutqiy muloqot insonning kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Ushbu bobning uchinchi bo'limi *"O'quvchi nutqi pedagogikaga oid terminlar"* deb nomlangan. Unda ingliz va o'zbek tillaridagi *o'quvchi nutqi* pedagogikasi bo'yicha terminlar tahlilining davriy rivojlanish bosqichlari va yondashuv jihatlari o'quv jarayonining qanday o'zgarib borganini ko'rsatib berilgan. Bu tahlil o'quvchi nutqi pedagogikasidagi yondashuvlar va terminologiyaning taraqqiyotini tushunishga yordam beradi. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi o'quvchi nutqi pedagogikasi bo'yicha terminlarning davriy rivojlanish bosqichlari va yondashuv jihatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. *an'anaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv, interaktiv va innovatsion yondashuv, informatsion yondashuv, raqamli yondashuvlar* izohlab, ochib berilgan.

Har qanday pedagogikaga oid terminlarda milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviv-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish pedagogikaga oid terminlarni ahamiyatini tashkil etadi. *O'quvchi nutqi pedagogikaga oid terminlar* shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omillar bilan bog'liqdir. O'quvchi nutqi pedagogikaga oid terminlarning mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmuini anglashdir.

Ingliz va o'zbek tillarida davriy rivojlanish bosqichlari va yondashuv jihatlarini davrlarga bo'lib tahlil qildik: 1970-yillar – *an'anaviy yondashuv bosqichi* (lecturing-ma'ruza qilish); 1980-yillar – *kommunikativ yondashuv bosqichi* (interactive learning (interaktiv o'rganish)); 1990-yillar – *interaktiv va innovatsion yondashuv bosqichi* (educational technology (ta'lim texnologiyasi); 2000-yillar – *informatsion yondashuv bosqichi* (e-learning (elektron ta'lim); 2010-yillar – *raqamli yondashuv bosqichi* (blended learning (aralash ta'lim)); 2020-yillar –*masofaviy yondashuv bosqichi* (remote learning (masofaviy ta'lim).

Mazkur bobning to'rtinchi fasli *"Ota-ona nutqi pedagogikaga oid terminlar"* deb nomlangan. Ota-ona nutqi pedagogikaga oid terminlar, ota-onalar va

oʻqituvchilar oʻrtasidagi muloqot va taʼlim jarayonida muhim rol oʻynaydi. Ushbu terminlar ota-onalarga farzandlari taʼlim jarayonida qanday yordam berish, ularning rivojlanishiga qanday hissa qoʻshish kerakligini tushuntiradi. Ingliz va oʻzbek tillarida ota-ona nutqi pedagogikasiga oid terminlar va ularning tasnifi haqida batafsil maʼlumot quyida keltiriladi. Ingliz va oʻzbek tillarida ota-ona nutqi pedagogikasi terminlariga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: *Parent Involvement / Ota-onalarning ishtiroki.* Ota-onalarning ishtiroki farzandlarining taʼlim jarayonida faol qatnashishini anglatadi. *Parent-Teacher Communication / Ota-ona va oʻqituvchi muloqoti.* Ushbu termin ota-onalar va oʻqituvchilar oʻrtasida muntazam muloqotning ahamiyatini taʼkidlaydi. *Parental Support / Ota-onalarning qoʻllab-quvvatlashi, Home Learning Environment / Uyda oʻrganish muhiti.* Ushbu termin farzandlarning taʼlimini qoʻllab-quvvatlash uchun uyda qulay oʻquv muhitini yaratishni anglatadi. *Parenting Style / Ota-ona tarbiyaviy uslubi.* Ota-ona tarbiyaviy uslubi ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash va yoʻnaltirish uslubini anglatadi. *Parental Engagement / Ota-onalarning faolligi.* Ularning faolligi maktab tadbirlari va faoliyatlarida faol ishtirok etishini bildiradi.

Ingliz va oʻzbek tillarida ota-ona nutqi pedagogikaga oid terminlar bilan bogʻliq oʻxshash va farqli tomonlarini tushuntirish uchun biz ushbu tahlillarni bir necha oʻlchovlar boʻyicha batafsil tavsiflab keltirishimiz mumkin. Ushbu tavsif *taʼriflar, xususiyatlar, funksiyalar va foydalanish kontekstlari* kabi toifalarni oʻz ichiga oladi. Har bir qator ingliz va oʻzbek terminlarini solishtirib, ularning oʻxshash va farqli tomonlarini koʻrsatib beradi. Ilmiy qarashlarimizning asosiy maqsadi shuki, pedagogika sohasida, ilmiy tadqiqotda, terminologiyada pedagogik qarashlarning ustuvorligini hamda terminlar tizimini ifodalash va boyitish, ularni tasniflash va tartibga solish, ota-ona nutqidagi xususiyatini aniqlash muhim deb hisoblaymiz. Pedagogik faoliyatning zamonaviylashuvi til tizimida terminologik yangilanishlarga sabab boʻlmoqda. Kommunikativ amaliyotda yuzaga kelayotgan yangi jarayon va tushunchalar ularni nomlash zaruratini tugʻdirib, yangi pedagogik terminlarning shakllanishi va diskursdagi faol qoʻllanishiga olib kelmoqda.

XULOSA

1. Terminologiyaning muhim jihatlari, terminlarning shakllanishi, ularning semantik koʻlami hamda qoʻllanilishiga taʼsir etuvchi omillarni batafsil tahlil qilish zarur. Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, pedagogik terminologiya boshqa ilmiy sohalar bilan uzviy bogʻliq, uning rivoji jamiyatning nafaqat ilmiy va taʼlimiy ehtiyojlariga, balki muloqot jarayonining talablariga ham mos tarzda oʻzgarib boradi. Terminologiyaning umumiy masalalari doirasida pedagogik terminlarning qanday paydo boʻlishi va ularning ijtimoiy kommunikativ xususiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Yangi pedagogik tushunchalarni terminologiya tizimiga kiritish jarayonini osonlashtirish va mazkur terminlarning zamonaviy taʼlim jarayonlaridagi oʻrnini anglash muayyan bir xalq pedagogikasi (masalan, ingliz va oʻzbek) va bu pedagogik faoliyat tizimiga xizmat qiluvchi terminlar oʻsha xalq madaniyati, gʻoyaviy-

mafkuraviy bazasi qanday ekanligi va xalq tafakkurining xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

3. Pedagogik terminlarning rivojlanish jarayoni va ularning asosiy tendensiyalari, terminlarning zamonaviy ta'lim tizimlariga moslashish jarayoni, ularning yangi ilmiy va texnologik yutuq, yangi tushunchalar, terminlar va ifodalar bilan muntazam to'ldiriladi. Bu jarayonda globallashuv, axborot texnologiyalari va boshqa omillar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, pedagogik terminlar turli davrlar va madaniy kontekstlarda qanday rivojlanishi va ularning asosiy tendensiyalari kelgusidagi terminologik izlanishlar uchun muhim manba hisoblanadi.

4. Pedagogik terminlarning ijtimoiy-kommunikativ jihatlari o'rganilganda, soha terminlari faqat ilmiy doiralarda emas, balki kundalik hayotda ham keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, ularning ta'lim jarayonida qanday muloqot vositasi maqomidagi o'rni, o'quvchilar hamda o'qituvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyada tutgan mavqeyi, pedagogik terminlarning ijtimoiy-kommunikativ xarakteri ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Soha terminlarining kommunikativ vazifalari, ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash va ularning didaktik samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

5. Terminlarning "pedagogik nutq" doirasidagi qo'llanilishi va ularning kommunikativ-pragmatik jihatlarini ko'rib chiqish, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotda terminlarning qanday rol o'ynashi, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va didaktik samaradorlikka erishish uchun qanday foydalanilishi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, "pedagogik nutq"da qo'llaniladigan terminlar nafaqat ma'noni yetkazishda, balki o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini samarali tashkil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil terminlarning pragmatik vazifalari va ularning pedagogik jarayonlarda qanday qo'llanishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

6. Pedagogikaga oid terminlarning sotsiolingvistik muammolari, ularning ijtimoiy tabaqalanishi va qo'llanilishi ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning turli ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday qabul qilinishi va foydalanililishiga bog'liqdir. Ushbu tahlillar natijasida pedagogik terminlarning ijtimoiy tabaqalanishi va ularning jamiyatdagi o'rni, shuningdek, terminshunoslikda sotsiolingvistik yondashuvning ahamiyatini oydinlashtiradi.

7. Terminlar ijtimoiy guruhlarning ta'lim darajasiga qarab turlicha qo'llanilishi, ularning qabul qilinishi va bu jarayonda sotsiolingvistik omillar, ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning ijtimoiy tabaqalanishi bilan bog'liq masalalar, ularning turli ijtimoiy qatlamlarda qay tarzda o'rin tutishi va ta'lim tizimidagi ahamiyati muhimdir. Pedagogik terminlar ijtimoiy tabaqalanish jarayonida turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib, ularning qabul qilinishi va qo'llanilishi ijtimoiy muhitning xususiyatlariga bog'liq. Bu tahlil pedagogik terminologiyaning ijtimoiy jihatdan o'ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

8. Pedagogik terminlar diskursiv xususiyatga ega bo'lib, ular turli nutq jarayonlari va matn shakllarida kommunikativ ehtiyojga qarab funksional tarzda qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogik terminlarning diskurs doirasidagi

pozitsiyasi, ularning kommunikativ vazifalari hamda kontekstual ahamiyati tahlil etilar ekan, ushbu birliklarning diskursiv muhitda samarali ishlatilishi ta'limiy muloqotning mazmunan boyishi va lingvopragmatik aniqlik kasb etishiga xizmat qilishi aniqlanadi.

9. Ingliz tilidagi pedagogik terminologiya tizimining leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek xalqlarining tarbiya va ta'limga doir konseptual qarashlarida muhim madaniy-diskursiv tafovutlar mavjud. G'arb, ayniqsa, ingliz jamiyatida "child upbringing" (bola tarbiyasi) konsepti ko'proq davlat institutlariga bog'langan bo'lib, bu holat pedagogik leksikada ham o'z aksini topgan. Tarbiya jarayoni, filologik diskursda, ijtimoiy-iqtisodiy struktura doirasida, davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Natijada, bola tarbiyasi davlatning institutsional majburiyati sifatida qaralib, "parental responsibility" (ota-onalik mas'uliyati) esa cheklangan kontekstda talqin qilinadi. Bu esa pedagogik terminlar orqali milliy madaniyatning tarbiya konseptiga munosabatini aks ettiruvchi sotsiolingvistik ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

10. Pedagogikaga oid terminologiyada "o'z" va "o'zlashganlik" tushunchalarining pragmatik jihatlari, ingliz va o'zbek tillarida ushbu tushunchalarning qanday namoyon bo'lishi, ularning o'zaro ta'siri va ishlatilishi bilan farqlanadi. Ushbu tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "o'z" va "o'zlashganlik" terminlar pedagogik jarayonlarda turli xil funksional yuklarni o'zida aks ettiradi. "O'z" terminlar milliy va madaniy xususiyatlarni aks ettirsa, "o'zlashganlik" terminlar yangi tushunchalar va yondashuvlarni kiritishga xizmat qiladi.

11. Pedagogik terminlarning boshqa tillardan o'zlashishi va ularning pragmatik jihatlari, qanday o'zlashgani, ularning til tizimida qanchalik samarali qo'llanilishi va o'zlashgan terminlar madaniy va lingvistik ta'sirlarga mos ravishda til tizimiga kirib keladi va ularning qo'llanilishi pragmatik jihatdan muhimdir.

12. Ingliz va o'zbek tillarida yangi pedagogik terminlarning shakllanishi, ularning qabul qilinishi va til tizimiga kirib kelishi murakkab hodisadir. Pedagogik neologizmlar til tizimida samarali qo'llaniladi va ularning pragmatik jihatlari ta'lim jarayonida qanchalik muvaffaqiyatli qo'llanilishini belgilaydi.

13. Pedagogik terminlarning leksikografik portretini yaratish tajribasi, ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning lug'aviy tizimdagi o'rni, ularning ma'nolarini aniqlash va ularni samarali ishlatish usullarini o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik terminlarning leksikografik tasviri ularning to'g'ri qo'llanilishi va samaradorligini oshirishda yordam beradi.

14. O'qituvchining nutqida pedagogik terminlarning qo'llanilishi va ularning pragmatik jihatlari tahlili terminlarning qanday ishlatilishi, didaktik vazifalarni bajarishi va o'quvchilar bilan muloqotda ta'sir ko'rsatishidir. O'quvchi nutqida pedagogik terminlarning qanday qabul qilinishi va qo'llanilishi o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatli holatlardan biri hisoblanadi.

NIZOMOVA MOHINUR BAROTBOYEVNA

SOCIOLINGUISTIC AND PRAGMALINGUISTIC APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TERMS
(ON THE EXAMPLES OF THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

10.00.06 – Comparative literary criticism, contrastive linguistics and translation studies

DISSERTATION ABSTRACT
for a Doctor of Science (DSc) in PHILOLOGY

Karshi – 2026

The theme of the dissertation for a Doctor of Science (DSc) in Philology was registered at the Supreme Attestation Commission under № B2023.4.DSc/Fil718

The dissertation has been accomplished at Karshi State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been placed on the website (www.buxdu.uz) of the Scientific Council and "ZiyoNet" Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Paluanova Xalifa Dariboyevna** Doctor of Science in Philology, Associate Professor
Official opponents:	**Tojiyeva Gulbahor Namozovna** Doctor of Philological Sciences, Professor **Otaboyev Nozimjon Bobojonovich** Doctor of Philological Sciences, Professor **Teshaboyeva Ziyoda Qodirovna** Doctor of Philological Sciences, Professor.
Leading organization:	

The dissertation defense will be held on "_____" _____ 2026 at _____ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2021. Fil.70.01 at Karshi State University (Address: 180103, Karshi, Kuchabog street,17. Phone: (0 375) 225-34-13; Fax: (0375) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz).

The dissertation is available at the Information-resource center of Karshi State University, (registration number _____). Address: 180103, Karshi, Kuchabog street,17. Phone: (0 375) 220-02-10; Fax: (0375) 221-00-56; e-mail: kasu_info@edu.uz)

The dissertation abstract is distributed on "_____" _____ 2026.

(Mailing report № _____ on "_____" _____2026).

G.H.Ernazarova
Chairperson of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

N.K.Ochilov
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

B.Z.G'afurov
Chairperson of the Scientific Seminar under Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

INTRODUCTION (Doctor of Science (DSc) Dissertation Annotation)

Relevance and necessity of the research topic. In world linguistics, the development of interlingual communication and the expansion of intercultural relations are strengthening the necessity of consistently providing a linguistic substantiation of the innovations occurring in the education system. The entry of terms used in the field of pedagogy into the sphere of general usage requires their description on the basis of scientific criteria, the determination of their semantic boundaries, and the clarification of their norms of use. A deep contextual and pragmatic analysis of pedagogical terms, the harmonization of sociolinguistic and pragmalinguistic approaches, and the consistent elucidation of the communicative-linguistic and linguocultural features of the units of the pedagogical terminological system are considered an actual issue. Consequently, studying and scientifically substantiating the connections between educational innovations specific to different languages through these terms is of significant importance.

In world linguistics, the formation and development of pedagogical terms have expanded the scope of scientific research related to issues of synonymy, homonymy, morphological, structural-semantic, linguostylistic, and lexicographic nature. At present, research is being conducted on the lexical-phraseological, universal, differential, as well as descriptive-classificatory features of the units related to this field. From a sociolinguistic and pragmalinguistic point of view, the analysis of the development of pedagogical terms in English and Uzbek, which differ in their national nature, is considered one of the important components of the educational process. Describing the comprehensible and culturally appropriate use of pedagogical terms, revealing their cognitive-categorial principles, and the comparative analysis of pragmatic features based on the verbalization of human thinking and logical activity serve for the scientific interpretation of Eastern and Western linguocultural realities. Indeed, in the context of increasing the effectiveness of the educational process, systematizing and standardizing the use of new technologies, determining the socio-communicative value of terms, and establishing the necessary scientific foundations for the popularization of prospects of innovative development define the theoretical and methodological basis of the research.

In New Uzbekistan, special attention is being paid to the development of the theory of education and upbringing on the basis of advanced foreign experiences and to the training of qualified personnel through the creation of a new generation of pedagogical terms. The fact that research is being conducted on the interpretation of terms related to various fields in Uzbek language, as well as on the creation of Uzbek terms and concepts and their application in practice, is associated with serious changes in the field of terminology. The stable development of Uzbek linguistics puts on the agenda the issues of theoretical study of scientific problems in the field of terminology. Accordingly, the necessity of comprehensively considering the sociolinguistic and pragmalinguistic aspects of terms related to the field of pedagogy is also confirmed by the idea that "…we must continue our reforms, visit educational institutions, communicate more with teachers and mentors, and jointly solve the

issues they raise in order to improve the quality of educational work." On this basis, the need to linguistically clarify the normative use of pedagogical terms is being required

This dissertation, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks defined in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: No. PF-5847 dated October 8, 2019 "On approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", No. PF-6084 dated October 20, 2020 "On measures for the further development of the Uzbek language and improvement of language policy in the country", No. PF-60 dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", and No. PF-158 dated September 11, 2023 "On the 'Uzbekistan – 2030' Strategy"; as well as in the resolutions: No. PQ-3775 dated June 5, 2018 "On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in the large-scale reforms being implemented in the country", No. PQ-5117 dated May 19, 2021 "On measures to bring the activities of popularizing the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level"; and the Resolution of the Cabinet of Ministers No. 610 dated August 11, 2017 "On measures to further improve the quality of teaching foreign languages in educational institutions", as well as other regulatory and legal documents related to the field.

Compliance of the research with the priorities of the republic's science and technology development. This research has been carried out in accordance with priority line I. of the development of science and technologies of the Republic, namely, "Formation of a system of innovative ideas and the ways of their implementation in social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state".

Review of foreign scientific research on the subject of dissertation[1]. Scientific research aimed at studying the sociolinguistic and pragmalinguistic approach in the development of pedagogical terminology is being conducted at leading scientific centers and higher educational institutions of the world, including the University of Oxford (United Kingdom), Indiana University, the University of California, Columbia University (USA), the University of Toronto (Canada), Lomonosov Moscow State University, Saint Petersburg State Institute of Oriental Studies, Altai State University, Dagestan State Pedagogical University (Russia), Taras Shevchenko National University of Kyiv (Ukraine), Ankara University (Turkey), Khujand State University (Tajikistan), Uzbekistan State World Languages University, the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Karshi State University, and Navoi State Pedagogical Institute (Uzbekistan).

In world linguistics, significant conclusions have been drawn regarding the study of pedagogical terminology: the terms of the educational sphere are interpreted

---

[1] A review of foreign research on the topic of dissertation: https://www.dissercat.com/ , https://www.twirpx.com/files/science , www.amozon.com , www.britanica.com , www.cambridge.org , https://diss.natlib.uz , https://ziyonet.uz/search was conducted based on the above-mentioned sources.

